



TA'LIM JARAYONINI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH

Mirqosimova Marg'uba

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi professori,p.f.d.

Anotatsiya: *Maqolada muallif o'quvchi-talabalarining individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning ichki qobiliyatlarini, tayanch kompetensiyalari va zamonaviy ko'nikmalarini pedagogik qadriyatlar asosida rivojlantirish, ta'lim jarayonlariga SMART, comfort learning, self-study kabi o'qitish modeli va texnologiyalaridann foydalanishning ahamiyatini yoritgan.*

Kalit so'zlar: *, tayanch kompetensiyalar, zamonaviy yondashuvlar, ko'nikmalar, pedagogik qadriyatlar, ta'lim jarayoni, SMART, comfort learning, self-study , o'qitish modeli , texnologiyalar.*

Mavzuning dolzarbligi. Modernizatsiyalashgan ta'lim sharoitida o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishda zamonaviy ta'limiy yondashuvlarga ustuvorlik berilmoqda. Shuningdek, xalqaro ta'lim tajribalaridan kelib chiqib, o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni "4K" – kommunikativ, kritik, kreativ va kollaborativ ko'nikmalar asosida shakllantirishga qaratilgan STEAM ta'lim tizimining ham keng joriy etilishi bu borada yuqori natijaga erishishga zamin yaratmoqda. PISA, PIRLS, TIMMS, TALIS kabi xalqaro baholash dasturlari talablariga kiritilgan "4K" ko'nikmalarini rivojlantirishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv bugungi kunda rivojlangan davlatlar tomonidan samarali ekanligi alohida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, o'quvchilarning tayanch kompetensiyalari, Soft Skills, "4K" ko'nikmalarni rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish, mazkur kompetensiyalarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy omillarni aniqlashtirish, pedagogik-dagnostik korreksiyalash faoliyatini tizimli amalga oshirish va o'quvchilarning individual-intellektual qobiliyatlarini shakllantirishga doir metodikalar shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida amalga oshirilmoqda. Respublikamizda bu yo'nalishdagi tadqiqot ishlari allaqachon boshlangan: N.M.Egamberdiyeva, S.T.Yuldasheva, Sh.Z.Taylanova, D.R.Salixova, B.Xodjayev, N.I.Raxmonova, J.Tulenov, Sh.Q.Mardonov, Qurbonova M. tadqiqotlarida qadriyat mazmuni va aksiologik yondashuvlar, o'quvchi tarbiyasida qadriyatning zarurati, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tadqiq etilgan.¹³ Xoriliy mamlakatlarda ham shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni, kommunikativ, kritik, kreativ, kollaborativ ko'nikmalarini shakllantirish, pedagogik qadriyatlarni tarkib toptirishning metodik ta'minoti hamda innovatsion modellarini ishlab chiqishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jamiyatning taraqqiyoti millat yoshlarini milliy ruhda tarbiyalash, ularni milliy qadriyatlarga

¹³ Қ.Назаров.Аксиология. Тошкент.Академия-2011, 20-216; Имомназаров М.Миллий маънавиятимиз назариясига чизгилар.Тошкент.Шарқ, 1998 – Б.131.; Xodjayev B.X. "Pedagogik aksiologiya" o'quv qo'llanma. T. "Fan va texnologiya", 2011. - 156 bet.; Маврулов А. Маънавий баркамол инсон тарбияси. – Тошкент: "O'zbekiston", 2008. – Б. 11-12.; Қурунов М. Ўзбекистон умумтаълим мактабларида миллий тарбиянинг илмий-педагогик асослари: пед. фан. докт. ...дис. – Тошкент, 1998. – Б. 363;



asoslangan ijtimoiy hayot, turmush tarziga qay darajada samarali tayyorlanishiga bog'liq. Shu sababli asrlar davomida har bir millat, xalq o'z milliy qadriyatlari negizida yosh avlod tarbiyasini tashkil etishga oid qarashlarni shakllantirib kelgan. Bir millat va elat uchun qadrlil bo'lgan odatlar, an'analar va qarashlarni hurmat qilish, qadrlash ta'lim tizimida shakllantiriladi, metodik vositalar yordamida yosh avlodga o'rgatiladi. Insonning o'zini o'zi hurmat qilishi, o'z or-nomusi hamda obro'sini saqlab qolishiga imkon beradi. Bu esa unga milliy o'zligini anglash orqali vujudga keladigan jarayonlarda shakllanib boradi. Insonning shaxsiy qadr-qimmati milliy qadriyatlardan kelib chiqadigan ijtimoiy xususiyatlardan bo'lib, uni yuksaklikka olib boruvchi oliyanob ma'naviy kuchdir. Uning o'zi va atrofidagilar uchun foydali, samarali jihatlarining ko'payib borishi atrofdagilar ma'naviy-axloqiy xislatlarini ham tuzatib borilishiga ta'sir etadi. Shu sababli jamiyat taraqqiyoti talablarida inson qadriyati milliy qadriyatlardan kelib chiqishiga ko'ra ijtimoiy mazmun kasb etadi. Qadriyat insonning ta'limi, tarbiyasi va kundalik mehnat faoliyati jarayonida shakllanadi. Pedagogik qadriyat o'quvchida insoniylikni shakllantiradi, demokratik va diplomatik munosabatlar qurishda kerak bo'ladigan ko'nikmalarni real vaziyatlarda qo'llay olishga o'rgatadi.

Asosiy qism. Pedagogik qadriyat tarbiya va intizom asosida o'quv jarayonida shakllanadigan, shaxsning ijtimoiy munosabatlarni ma'naviy-axloqiy me'yorlar, xulq-atvori va yurish turishini tartibga solib turadigan ko'nikmalar tizimidir. Buning ta'siri natijasida insonning nafaqat harakteri, balki uning hayotiy faoliyati ham yangicha mazmun kasb etib, boyib boradi. Pedagogik qadriyat har bir o'quvchiga milliy o'zlikni anglash, o'zbekona qadriyatlar asosida vatanga sadoqat ruhida ta'lim olish natijasida shaxsiy rivojlanish imkonini beradi. Bu esa, ularning zamonaviy potentsiallarini oshirish bilan bir qatorda bag'rikeng, mehribon, samimiy, adolatli, to'g'ri so'z, sadoqatli, mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalanishiga xizmat qiladi. Milliy ta'lim konsepsiyasi sharqona ta'lim va tarbiya mazmunidan iborat bo'lib, birinchi navbatda o'quvchi tarbiyasi, odob-axloqqa xos sifatlar yetakchilik qilishiga e'tibor qaratiladi. Insoniyatni shaxs sifatida yuksalishi avvalo uni ma'naviyati, ilmi va hunari, tanlagan kasbi bilan davlat rivojiga, jamiyat a'zolari, oilasi va mahallasiga beradigan hissasi va yordami hamda ijtimoiy faolligi bilan belgilanadi.

Milliy ta'lim konsepsiyasining maqsadi rivojlangan davlatlar tomonidan tajribadan o'tkazilayotgan, ta'limdagi xalqaro zamonaviy ta'limiy yondashuvlar sifatida tatbiq etilayotgan Soft skills, "4K" ko'nikmalarini hamda tayanch kompetensiyalarini o'quvchilarda shakllantirish, yangi avlod kadrlarida zamonaviy ta'limiy yondashuvlarga raqobatbardosh, pedagogik qadriyatlar asosida ma'naviy immunitetni oshirish trayektoriyasiga qaratilgan. Millat, xalq o'z milliy qadriyatlari negizida yosh avlod tarbiyasini tashkil etishga oid qarashlarni shakllantirib kelgan. Bir millat va elat uchun qadrlil bo'lgan odatlar, an'analar va qarashlarni hurmat qilish, qadrlash ta'lim tizimida shakllantiriladi, metodik vositalar yordamida o'rgatiladi. Insonning o'zini o'zi hurmat qilishi, o'z or-nomusi hamda obro'sini saqlab qolishiga imkon beradi. Bu



esa unga milliy o'zligini anglash orqali vujudga keladigan jarayonlarda shakllanib boradi. Insonning shaxsiy qadr-qimmati milliy qadriyatlardan kelib chiqadigan ijtimoiy xususiyatlardan bo'lib, uni yuksaklikka olib boruvchi oliyjanob bir kuchdir. Shu jihatdan qadriyatlar insonning ijtimoiy erkinligini va ma'naviy pokligini ta'minlovchi bir buyuk manbadir. Uning o'zi va atrofidagilar uchun foydali, samarali jihatlarining ko'payib borishi nafaqat uning o'zini, balki atrofdagilar ma'naviy-axloqiy xislatlarini ham tuzatib boradi. Shu sababli jamiyat taraqqiyoti talablarida inson qadriyati milliy qadriyatlardan kelib chiqishiga ko'ra ijtimoiy mazmun mohiyatga egadir. Qadriyat insonning ta'limi, tarbiyasi va kundalik mehnat faoliyati jarayonida shakllanadi. Pedagogik qadriyat o'quvchida insoniylikni shakllantiradi, demokratik va diplomatik munosabatlar qurishda kerak bo'ladigan ko'nikmalarni real vaziyatlarda qo'llay olishga o'rgatadi. Pedagogik qadriyat tarbiya va intizom asosida o'quv jarayonida shakllanadigan, shaxsning ijtimoiy munosabatlarni ma'naviy-axloqiy me'yorlar, xulq-atvori va yurish turishini tartibga solib turadigan ko'nikmalar tizimidir. Buning ta'siri natijasida insonning nafaqat harakteri, balki uning hayotiy faoliyati ham yangicha mazmun kasb etib, boyib boradi. Pedagogik qadriyat har bir o'quvchiga milliy o'zlikni anglash, o'zbekona qadriyatlar asosida vatanga sadoqat ruhida ta'lim olish natijasida shaxsiy rivojlanish imkonini beradi. Bu esa, ularning zamonaviy potentsiallarini oshirish bilan bir qatorda bag'rikeng, mehribon, samimiy, adolatli, to'g'ri so'z, sadoqatli, mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalanishiga xizmat qiladi. Zamonaviy shaxsni tarbiyalashda dunyo tajribasida keng qo'llanilayotgan Hard skills va Soft skills tushunchalarini ta'lim mazmuniga singdirish alohida ahamiyatga ega. Qattiq ko'nikmalar (hard skills) – kasbiy, texnik ko'nikmalar. Har bir kasb egasi muayyan ko'nikmalarga ega bo'ladi. Ularni namoyish qilish, tekshirish va baholash asosida kasbiy ko'nikmalari shakllanib boradi. Yumshoq ko'nikmalar (Soft skills) – qo'shimcha, universal ijtimoiy-psixologik ko'nikmalar. Ular kasbga bog'liq bo'lmaydi, lekin insonning hayotdagi ijtimoiy faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Odamlar bilan muomala qilish madaniyati, nizolarni hal qilish qobiliyati, odamlarni ishontirish mahorati, moslashuvchanlik, mas'uliyatlilik, puxtalik, har ishni o'z vaqtida bajarish, tanqidiy fikrlash, kreativlik kabi xususiyatlar “yumshoq ko'nikmalar”ga misol bo'ladi. Bunday ko'nikmalar nafaqat ishda, balki hayotning barcha jabhalarida kerak bo'ladi. Qattiq ko'nikmalarni faqatgina aniq belgilangan ko'rsatmalar yordamida egallash mumkin bo'lsa, yumshoq ko'nikmalar odamda yo tug'ma bo'lib, hayotiy vaziyatlar, ta'lim-tarbiya jarayonida shakllanib boradi.

Soft Skills bu inson hayoti va faoliyatida kerak bo'ladigan universal ko'nikmalar jamlanmasi bo'lib, unga quyidagilar kiradi: insonlarni to'g'ri muloqot qilish; jamoaviy ishlash; emotsiya va stressni boshqara olish; liderlik qobiliyati; taym menejment; tizimli va strategik fikrlarash qobiliyati; muzokara olib borish; konstruktiv tandiqidiy fikrlash; muammolarni hal qilish; kreativlik; qaror qabul qila olish. Pedagogik qadriyatlar asosida zamonaviy shaxsni tarbiyalashda darsliklarning ahamiyati beqiyosdir. Zotan,



zamonaviy darsliklar o'quvchilarning ijtimoiylashuviga yordam beradigan pedagogik vosita bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida yaratilgan darsliklar va shu darslik mazmunidan kelib chiqib tashkil etiladigan darslar talabalarda universal, adaptiv va hayotiy ko'nikmalar shakllantirishning metodik tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa va tavsiyalar. Yoshlarda hayotiy ko'nikmalarni pedagogik qadriyatlar sifatida "Tarbiya" darslarida shakllantirishning metodik imkoniyati katta. Namuna bo'la oladigan hamda hayot yo'lida bilimi, ilmi, iqtidori bilan muvaffaqiyat qozona olgan, hududdagi taniqli insonlar, ijtimoiy faol shaxslar tomonidan ochiq debat va trening tarzida o'tilishi o'quvchilarda pedagogik qadriyatlarga nisbatan ishonchni uyg'otadi. Zamonaviy ta'limiy yondashuvlar o'quvchi – talabalarning faolligini, faol o'rganishini va motivatsiyasini oshiradi. Bu yondashuvlar vositasida ijodkorlik, tasavvur va innovatsiyalarni kuchaytirishi mumkin. Ular yoshlarda tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Дусчанова Н.С. Замонавий педагогик ёндашувлар: қиёсий таҳлил. Academic Research in Educational Sciences . Volume 3, Issue 3, March, 2022.

2. Turayev B.O, Ergasheva M.X, Raxmanov B.U va boshq. Sinergetika: mohiyati, qonuniyatlari va amaliyotda namoyon bo'lishi. –T.: "Navro'z", 2017. - 360 b.

3. Qurbonova M.F. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim afzalliklari. "Pedagogik ta'lim, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarning ilmiy-nazariy asoslarini yaratish va uni amaliyotga joriy etish." Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya. 2023-yil, 15-iyun. –B.568-571.

4. Мирқосимова М. М. ТАЛАБАЛАРДА АНАЛИТИК ТАФАККУРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2020. – Т. 2. – №. 4. – С. 478-481.

5. Мирқосимова М. М. МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМ ШАРОИТИДА ЎҚУВ ФАНЛАРИНИ ИНТЕГРАЦИЯЛАШ ТАМОЙИЛЛАРИ //Образование и инновационные исследования. Международный научно-методический журнал. – 2020. – Т. 1. – №. 1. Стр. 89-95.